

### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



**Ish haqi.** 2021-yil yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyati shahar, tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili qo‘yidagilarni ko‘rsatmoqda. Viloyatda o‘rtacha oylik ish haqi 3 877,1 ming so‘mni tashkil etgan holda, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 6 243,6 ming so‘mni (viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan

161,0 foiz), Zarafshon shahrida 5 781,1 ming so‘mni (149,1 foiz), Navoiy shahrida 4 181,6 ming so‘mni (107,8 foiz), tashkil etgan bo‘lsa, Qiziltepa tumanida 1 828,5 ming so‘mni (47,2 foiz), Xatirchi tumanida 1 936,2 ming so‘mni (49,9 foiz), Navbahor tumanida 1 966,5 ming so‘mni (50,7 foiz), G‘ozg‘on shahrida 2 157,8 ming so‘mni (55,6 foiz), Nurota tumanida 2 033,2 ming so‘mni (52,4 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.


#### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi\* (ming so‘mda)

	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>3 414,2</b>	<b>3 877,1</b>	<b>113,6</b>
Navoiy sh.	3 593,7	4 181,6	116,4
Zarafshon sh.	4 832,5	5 781,1	119,6
G‘ozg‘on sh.	-	2 157,8	-
Karmana	2 636,5	3 042,1	115,4
Konimex	2 864,8	4 029,6	140,7
Qiziltepa	1 670,8	1 828,5	109,4
Navbahor	1 792,0	1 966,5	109,7
Nurota	1 748,2	2 033,2	116,3
Tomdi	2 083,6	2 351,2	112,8
Uchquduq	5 067,4	6 243,6	123,2
Xatirchi	1 755,8	1 936,2	110,3

*\*)Qayta hisoblangan, kichik tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz.*

2021-yil yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 113,6 foizni tashkil etib, o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori sur‘atlari Konimex tumani 140,7 foiz, Uchquduq tumani 123,2 foiz, Zarafshon shaxri 119,6 foiz, Navoiy shahri 116,4 foiz, Karmana tumani 115,4 foiz, Nurota tumani 116,3 foiz, Tomdi tumani 112,8 foiz, Xatirchi tumanida 110,3 foiz, Navbahor tumani 109,7 foiz va Qiziltepa tumanida 109,4 foizga o‘sgani kuzatildi.

**Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2020-yil yanvar-sentabrga nisbatan, % da)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq ho‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)

	ming so‘mda			
	Yanvar-sentabr		Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da	
	2020-yil	2021-yil	2020-yil	2021-yil
<b>Jami viloyat bo‘yicha:</b>	<b>3 414,2</b>	<b>3 877,1</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	4 726,9	5 678,6	138,4	146,5
Qurilish	4 009,5	4 678,5	117,4	120,7
Savdo	2 565,0	2 259,9	75,1	58,3

	<i>Yanvar-sentabr</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da</i>	
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>
Tashish va saqlash	2 172,5	2 511,3	63,6	64,8
Axborot va aloqa	2 528,4	3 051,9	74,1	78,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	5 462,7	7 198,7	160,0	185,7
Ta'lim	1 906,9	2 206,0	55,9	56,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 778,2	1 958,0	52,1	50,5
Boshqa faoliyat turlari	2 683,9	3 153,8	78,6	81,3

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari moliya va sug'urta faoliyatida (185,7 foiz), Sanoatda (146,5 foiz), Qurilishda (120,7 foiz), Axborot va aloqada (78,7 foiz), Tashish va saqlash (64,8 foiz), Savdoda (58,3 foiz), Ta'limda (56,9 foiz), Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (50,5 foiz) va boshqa (81,3 foiz) sohalar hissasiga to'g'ri keldi.

**Sanoat sohasida** 29 ta korxonada 74 025 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,3 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Sanoat sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 678,6 ming so'mni;

**Ta'lim sohasida** 655 ta korxonada 42 696 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,0 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 506,0 ming so'mni;

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida** 45 ta korxonada 17 892 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,5 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 958,0 ming so'mni;

**Savdo sohasida** 14 ta korxonada 1 391 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan 0,8 foizni), xodim ishlagan bo'lib, Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 259,9 ming so'mni;

**Qurilish sohasida** 11 ta korxonada 4 749 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 678,5 ming so'mni;

**Axbarot va aloqa sohasida** 6 ta korxonada 612 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 foizni) xodim ishlagan bo‘lib, Axbarot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 051,9 ming so‘mni;

**Tashish va saqlash sohasida** 8 ta korxonada 2 152 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 foizni) xodim ishlagan bo‘lib, Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 511,3 ming so‘mni;

**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** 40 ta korxonada 2 005 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 foizni) xodim ishlagan bo‘lib, Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 198,3 ming so‘mni;

**Boshqa faoliyat turlari sohasida** 1133 ta korxonada 25 370 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,8 foizni) xodim ishlagan bo‘lib, Boshqa faoliyat turlari sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 153,8 ming so‘mni tashkil etdi.